

**BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA MAKTABLARDA O`QUV TAJRIBA
MAYDONLARINI TASHKIL ETISH*****Shomurotova Xurshida Baxtiyorovna****Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti**shomurotova1987@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya fanini maktablarda o`quv tajriba maydonlarini tashkil etish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o`quv tajriba maydonlari, ta'lim, ijodiy muhit, mehnat madaniyati, o'simlikni ko'paytirish, mustaqil bilish faoliyati, ijodiy ko'nikma.

Аннотация. В статье описывается организация экспериментальных учебных зон в школах по биологии.

Ключевые слова: области получения опыта, образование, творческая среда, культура труда, воспроизводство растений, самостоятельная познавательная деятельность, творческие навыки.

Abstract. This article describes information about organizing experimental learning areas in biology schools.

Key words: learning experience areas, education, creative environment, work culture, plant reproduction, independent cognitive activity, creative skills.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimida biologiyani o`qitishda o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o`quvchilarning o`tgan mavzu yuzasidan o`zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o`zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o`rganish jarayonida xususiy metodik va lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o`qitishda xususan O`quvchilarga aniq puxta, mantiqiy tuzilgan plan asosida ishlash uquvini singdirish zarur. Buning uchun maktab o`quv tajriba uchastkasida katta pedagogik imkoniyatlar bor. Uchastka territoriyasida tashkil etishning, ekin va ko'chatlar ekishning pedagogik o`ylangan rejasini tuzishni birinchi o`ringa qo'yilishi kerak.[3]

O`quvchilar maktab uchastkasida ishlab, biologiyadan olgan bilimlarini yangi olingan o'simlik va hayvonlar misolida mustahkamlaydilar. Ular qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishning va hayvonlar parvarishining eng muhim agronomik usullari to'g'risida tasavvurlar hamda ular bilan ishlashning muayyan sistemadagi ko'nikmalarni hosil qiladilar. Uchastkadagi ishlar o`quvchilarda tashkilotchilik,

jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni, o'simlikni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini tarbiyalashi kerak.[2]

Muhokama va natijalar. O'quv tajriba maydonlarida kuzda, bahorda botanika, zoologiya va biologiya bo'yicha darslar va amaliy mashg'ulotlar, yozda, kuzda va bahorda tajribalar qo'yish va kuzatishlar o'tkazish, botanika, zoologiya va biologiya darslarga tarqatiladigan va demonstratsiya materiallari tayyorlash bo'yicha darsdan tashqari ishlar o'tkaziladi. Uchastkada yosh biologlar ish olib boradi va maktab, sinfdan tashqari tadbirlar: hosil bayrami, bog' kuni, qushlar bayrami, ko'rgazmalar, ota-onalar, boshqa maktab o'quvchilari uchun ekskursiyalar va shu kabilar tashkil qilinadi.[1]

Dala bo'limi ikki: kolleksiya va tajriba qismlarga bo'linadi. Kolleksiya qismi quyidagi dalalarga ajratiladi:

- birinchi dalaga – suli, o'tlar;
- ikkinchi dalaga – donli ekinlar: javdar bug'doy, arpa, tariq, makkajo'xori;
- uchinchi dalaga – dukkakli ekinlar: no'xot, loviya, soya va yem xashak o'tlari, beda;
- to'rtinchi dalaga – tolali ekinlar: zig'ir, kanop, moyli ekinlar: kungaboqar, kanakunjut, yeryong'oq;
- beshinchi dalaga – chopiq talab ekinlar: kartoshka, qand va xashaki lavlagilar;
- oltinchi dalaga – efirli va dorivor o'simliklar yalpiz;
- yettinchi dalaga – texnika ekinlari: g'o'za, kanop ekinlari.

Tajriba qismlarida:

- birinchi dalada - qora shudgorda begona o'tlarni paydo bo'lishi va ularga qarshi kurash, yashil o'g'itlar bilan o'g'itlangan va o'g'itlanmagan yerda kelgusi yilda g'alla ekish.
- ikkinchi dalada - ekishning yaxshi usulini aniqlash.
- uchinchi dalada - beda va unga aralashtirilgan pichan hosili.
- to'rtinchi dalada - kartoshkalarining yer ustki tugunaklarini hosil qilish, chopiqni ta'siri, kartoshkani ko'paytirish usullari, kartoshkadan yuqori hosil olish.

Sabzavot ekinlarini bo'limida – alohida uchastkaga ko'p yillik ekinlar kolleksiyasi: yernok, shavel, rovoch o'tqaziladi. Bo'limning qolgan maydonini sabzavot almashlab ekish uchun 4 ta dalaga ajratiladi. 1-dalada: go'ng bilan yangi o'g'itlangan yerga bargli ekinlar, har xil navli karam: mosh va qizil karam, gul karam, pomidor, piyoz.

2-dalada: mevali ekinlar.

3-dalada: mineral o'g'itlar bilan o'g'itlangan yerga ildiz mevali: sabzi, lavlagi, sholg'om, rediska.

4-dalada: dukkakli ekinlar:loviya, no'xat va ertangi kartoshka ekiladi. Sabzavot ekinlari ustida o'tkaziladigan tajribalar quyidagilar bo'lishi mumkin:yerga qo'shimcha ishlov berishning ta'siri, qalamchadan ko'paytirish, chatishtirish, novdalarning chilpishning ta'siri, yaxshi o'simliklarni urug'lik uchun ajratish, asosiy ekinlar: karam, pomidor, lavlagi, piyoz, bodring va boshqalardan yuqori hosil yetishtirish.

Bu tajribalarning barchasidan botanika V-VI sinflardagi mavzularni o'tishda, biologiyadan X- sinfda "Hayotiy jarayonlar", "Irsiyat va o'zgaruvchanlik", "Ekosistema", "Evolyutsiya" boblaridagi mavzularini o'tishda foydalaniladi. Rezavor meva ekinlari bo'limining katta qismi mevali bog' uchun, kichikroq qismi rezavor meva ekinlari va pitomnik uchun ajratiladi.[4]

Xulosa. Biologiya darslarida o'quv tajriba maydonlarini amaliyotda qo'llash o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini va ijodiy ko'nikma, malakalarini takomillashtirishda, kreativlik va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
- 2.J.Tolipova va boshqalar "Botanika" 5-6 sinflar metodik qo'llanma. 2003y
3. Умарова, Ж. К., & Рахмонова, Р. Б. (2023). НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 118-124.
4. Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." Open Access Repository 4.3 (2023): 21-25.
5. Ibodova, Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.4-2 (2023): 125-131.
6. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.10 (2021): 322-326.